

## ÓZBEKİSTON TARAQQIYOTIGA MENİNG HİSSAM

**Shuxratbekova Zaxrooyim Xurshidbek qizi**

*Ózbekiston Davlat Jahon Tillari universiteti*

*Xorijiy til va adabiyot 1-bosqich 2423 guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolaning asosiy g'oyasi :O'zbekistonning yosh avlodni va «Uchinchi renessans «poydevori bo'lmish yoshlarni ma'naviy yetuk, barkamol etib tarbiyalashdagi roli va kuchi haqidagi mavzuga qaratilgan*

**Kalit so'zlar:** *Taraqqiyot, Renessans, yosh avlod, kelajak, Respublika.*

1 Yoshlar uchun keng imkoniyatlar.

Bugungi shiddat bilan rivojlanib kelayotgan va globallashuv jarayonidagi bu zamonda har bir rivojlangan davlatning dunyo hamjamiyatidagi o'rni va darajasi, u ta'lim va tarbiya berib kamol toptirayotgan yoshlarning aql idroki, bilim darajasi, ma'naviy salohiyati va salohiyati bilan belgilamoqda.

Har bir zamon va davrda yoshlar xalqning e'tibor markazida bo'lib kelgan. Hozirgi kunda yer yuzining qariyb 19% ni yoshlar qamrab olgan.

Taraqqiyotning har qanday sohasida rivojlanayotgan davlatlar, avvalo, yosh avlodning bilimi, aqli, tafakkuri va yaratuvchanligiga suyanadi. Ya'ni, har bir millatda yoshlar va ularning masalalari doimo e'tibor markazida, «Bir bolaga yetti mahalla ota-onas»degan, ularning tarbiyasiga jamiki xalq mas'uldir.

Yoshlarni qo'llab quvvatlash, ularga kerakli shart sharoit yaratib berish davlatning zimmasidagi hal qilinishi kerak bo'lgan oliy masalasi hamda vazifasidir. Ze'ro «Eng katta investitsiya -bu bilimga tikilgan investitsiyalar». Tabiiyki, o'sib ulg'ayib kelayotgan avlodning rivoji, ma'nani yetuk, va barkamol, yetuk bo'lishida ma'naviy-ma'rifiy va madaniy merosning ahamiyati yuksakadir. Azaldan bizning ota bobolarimizning hayotdagi maqsadi yosh avlodni tarbiyasi va ularning kamoli bo'lib kelgan.

Bizga meros bo'lib, bizgacha yetib kelgan doston va tarixiy asarlarda, rivoyat va o'gitlarda ham hammaning e'tibor markazida yoshlar markaziy obraz sifatida tasvirlangan. Bundan bilishimiz mumkinki, yoshlarga e'tibor, ularning ma'naviy rivojlanishi va yetuk shaxs bo'lib yetishishlariga qaratilgan sa'y harakatlar avvaldan boshlangan tizimli an'anadir.» O'lmas an'anasiga poydevori -yoshlarning ma'naviyat. O'zi aslida ma'naviyatning inson hayotida qanday o'rin kasb etadi, ma'naviyatning insonlar doim maqsadga erishadilar?

Ma'naviyat -insonning komil shaxs bo'lib yetishishida bebaho fazilat , ma'naviyati yuksak inson hayotning turli zARBalari, katta-kichik muammolariga va taqdirning toblanishlariga yengilib qolmaydi, aksincha, ulardan kuch olib, o'z maqsadlari tomon olg'a qadam tashlaydi.

Ma'lumki, ilm olmoq va o'rganmoq davr talabi va ehtiyojidir. Yoshlarning manashu talablarga javob bera olishga ular yashayotgan muhit muhim o'rIN kasb etadi,. Shuning uchun avvalo, yosh avlodning yashash va ta'lim olish muhitini yaxshilash va bu yo'lda amaliy islohotlarni yo'lga qo'yishni rivojlantirish lozim.

2 Yoshlar-uchinchi renessans bunyodkori.

"Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy Salohiyatdga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh Kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va Jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz " degan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. [1]

Darhaqiqat, yuksak ma'naviyatli Avlod, albatta, imkoniyat va sharoit yaratib beradigan davlatda kamol topadi. Avvalari xalqning muammolarini yechishga vaqt ketsa, hozirda muammolarning Kelib chiqmasligi uchun harakat qilinmoqda. Ayniqsa, yoshlarni eshitish, ularning Muamollarini yechich davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Vatanimizda Uchinchi Renessans asosi va poydevori, shubhasiz, biz yoshlarmiz! Buning isbotlashimiz uchun Barcha imkoniyat vas hart-shoaroitlar yaratib berilgan.

Davlatimiz yoshlarga e'tiborni, birinchi navbatda, ta'limdan boshladi. "Madaniyat yoshlikdan, insonni bolallar bog'chasida, mакtabda kitob o'qitishdan Boshlanadi" kabi gapning amaliy ifodasi sifatida islohotlar maktabgacha ta'lim muassasalarini tubdan isloh qilishdan va jahon tajribasidan o'rgangan holda eng Zamonaviy texnologiyalar bilan bog'chalarni ta'minlashdan boshlandi. Bog'cha Bosqichidan yetarli shart-sharoit va yaxshi bilim olmagan yoshdan oliy ma'lumotli Bo'lganida nimani kutish mumkin? Aynan mana shunday savollarga amaliy savol

Sifatida hozirgi kunda yurtimizning barcha hududlariga kichik yoshli farzandlarning Ta'lim-tarbiya olishi uchun yoshlar va o'qituvchilarga birdek sharoitlar yaratilmoqda. Tarix zarvaraqlariga oltin harf bilan nomlari yozilgan Imom Buxoriy, Muhammad Xorzamiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur qoldirgan ma'naviy va ilmiy meros yosh avlodni chin man'noda komillik sari yetaklaydi, ularning hayot yo'li va faoliyati ibrat namunasidir. Ulug' bobokalonlarimiz biz, yoshlarni ilm olishga, kitob o'qishga va ilmni tajribalar bilan mustahkamlashga chaqiradi. Haqiqatan, ilm olmoq va uni ulashmoq ma'naviyat quyoshining eng yorqin nurlaridir. Kishing ong-u tafakkuri kitob o'qish va

uni uqish bilan shakllanadi. Shu sabbali tyurtimizda katta va kichik yoshlar orasida Kitobxonlik va kitob o‘qish an’anasi kenhg targ‘ib qilinmoqda va bu tashabbus orqali Xalqimizning barcha qatlami kitobga allaqachon yana-da ko‘proq mehr qo‘yishga Ulgurdi. Har yili o‘tkazilib kelinayotgan kitobxnlik tanlovlari yoshlarning bilimini tajribada sinash asos bólmoqda.

### **3 Ilmli yoshlar-zamon talabi**

Internet resursi jadallahib rivojlanayotgan zamonda yoshlarning ilm olishi va unga ergashishi sezilarli darajada osonlashdi, sababi: networking orqali dunyo yoshlari O‘z fikr-mulohazalarini ijtimoiy tarmoqlarda yoritib berishi natijasida yoshlar bir-biridan o‘rganib, dunyo talabiga mos fikrlamoqda. Uchinchi Renessans davrining Gurkirashida ijtimoiy tarmoqlar katta ahamiyat kasb etadi. Jahonga tahdid solayotgan –Kovid-19 kasalligi tufayli ta’lim jarayonlari va ko‘p bellashuvlar onlayn formatda bo‘lib O‘tishi odatiy holga aylanib qoldi. Demak, endilikda internet tarmog‘i hayotimizning Ajralmas qismi sifatida alohida muhimlikka egadir. Ijtimoiy tarmoqlardan yoshlarning Qay maqsadda foydalanishiga bevosita ma’naviyatning bir bo‘g‘iniga aylanib qolmoqda.

Quvonarlisi, yurtimizda kompyuter savodxonligi, dasturlash bilimini egallash uchun Yoshlarga kerakli shart-sharoitlar yaratib berolmoqda. Internet tarmoqlardan foydalanish madaniyati ma’naviyatning asosiy Masalasıdir. Hozirgi kunda tarmoqlarning xavfsizlik darajasi va ulardan unumli Foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish bevosita davlat tomonidan kafotlanishi zarur.

Internet va undagi kontentlar yosh avlodning ma’naviyat dunyosiga o‘z ta’sirini O‘tkazmay qolmaydi. Undan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish hammamizdan birdek Mas’uliyat talab qiladi. Maktablarda o‘quvchi yoshlarning ta’lim-tarbiya olishi uchun hukumat o‘zining barcha imkoniyatlarini safarbar qilmoqda. Iqtidorli va past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlash jarayonlarida o‘qituvchilar metodikasida jahon standardlariga javob bera oladigan o‘zgarishlar yuz berdi. Ta’lim muassasalari rahbarlari bilim va salohiyatini, liderlik qobiliyatlarni oshirish uchun malaka oshirish kurslari tashkil qilishi yo‘lga qo‘yildi. Ayniqsa, xalqaro, respublika, viloyat va tuman darajasida o‘z bilimi va kuchi

Bilan bellashuvlarda g‘olib bo‘layotgan yoshlarni munosib taqdirlash mexanizmi yo‘lga Qo‘yib kelinoqda va bu, albatta, yoshlarni yorug‘ kelajakka, ularning davlat va jamiyat hayotida o‘z o‘rinlari borligiga ishontiradi, inontiradi! Mana shunday sharoitlarga

Munosib javob berayotgan yoshlar faoliyati televideniye, matbuot va internet Nashrlarida muttasil va mufassal yoritib kelinishi respublika bo‘ylab barcha yoshlarga Ruhiy dalda va motivatsiya beradi.

Yoshlar jamiyatimizning buguni va ertasidir. O‘zbekistonning eng katta boyligi Hamda bebafo xazinasi yoshlardir. Mamlakatimizda bizning huquq, manfaatlarimizni Himoya qilish, zaruru shart-sharoitlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy bazamavjud bo‘lib, bu tizim zamon talablariga hamohang tarzda takomillashtirilib Borilmoqda. Bunga qadar parlament tomonidan yoshlarga oid 50 ga yaqin qonun hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, 40 ga yaqin xalqaro huquqiy hujjatlar imzolangan.[2]

Masalan, O‘zbekiston davlati rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 14-sentabrda Birinchi imzolagan qonun hujjati “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunini Hamda 2017-yil 23-iyundagi “Yoshlar kelajagimiz davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni Yaqqol namuna bo‘la oladi. [3]

O‘zbekiston aholisining qariyb 64 % ini yoshlar tashkil etadi.[4] Bundan Ko‘rinib turibdiki, mehnat resurslarining yarmidan ko‘pi yoshlardir. Ayni damda har uch Rahbardan biri ham yoshlar hisoblanadi. Buning isbotini esa Oliy Majlis Senati huzurida tashkil etilgan Yoshlar parlamenti, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi hamda unga yangi tarkib Sifatida qo‘shilgan Yoshlar ishlari agentligi misolida ko‘rishimiz mumkin. Bugungi Kunda yoshlarni rahbarlikka tayyorlash maqsadida ularning tadbirkorlik bilan Shug‘ullanishlari uchun sharoitlar yaratilib, ularni turli zararli illatlar ta’siridan himoya qilish hamda huquqbazarlikning oldini olish kabi muhim vazifalarni hal etish maqsadida “Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi doirasida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi qoshida “Yoshlar – kelajagimiz” jamg‘armasi tuzildi. Yoshlar biznes tashabbuslarini start-up G‘oya va loyihalarini amalga oshirishlari uchun tijorat banklari orqali yillik 7 % Miqdorda imtiyozli kreditlar doirasida “Yosh tadbirkorlar” kovorking markazlari tashkil qilindi. Yangi O‘zbekistonning ma’rifatli jamiyatini yaratishda barcha o‘zgarishlarning Negizi hisoblangan ta’lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Ayni Vaqtida ta’lim, shu jumladan, ijtimoiy soha uchun xarajatlar miqdori davlat byudjeti Umumiyligi qiyomatining yarmidan ko‘prog ‘ini tashkil etmoqda. E’tibor berib qaraydigan Bo‘lsak, yangi ochilayotgan va ochilgan davlat tashkilotlari hamda xususiy Tashkilotlarda rahbarlik yoxud shu kabi lavozimlarni biz kabi yoshlar egallab turibdi.

Shu o‘rinda o‘zim hozirgi kunda universitet talabasiman va o‘z soham bo‘yicha Yutuqlarga erishib kelmoqdaman. Bularning asosida Vatanimdagи yoshlarga Berilayotgan e’tibor turadi. Yurtboshimiz tashabbusi bilan joriy etilgan «Kitobxon o‘quvchi», «Zulfiyaxonim»,» Yosh kitobxon»kabi ko‘rik tanlovlarida faol qatnashib faxrli o‘rnlarni qo‘lga kiritgandan. Shuningdek o‘rta maktabni oltin medal bilan tamomladim va hozirgi kunda 6 ta xorijiy tillar (ingliz, rus, nemis, yapon, turk va arab) ni puxta o‘zlashtirib kelmoqdaman. Yoshlarning jismonan yetuk,barkamol ulg‘aytirish maqsadidia tashkillashtirilgan ko‘plab sport musobaqalar g‘olibasiman. Biz, yoshlarni

davlatimiz rahbari Eshityapti, bizni xalq kutyapti, bizga ishonishmoqda. 4 Yangi Ózbekiston kelajagi va umidi -yoshlar qólida.

Aziz va jonajon yurtimiz nimalarni boshdan kechirmadi deysiz. O‘z o‘rnini topib, jahon sahnasida O‘zbekiston degan nomni mustahkamlaguncha nimalarga duch kelmadi, nimalarni yengib o‘tmadi. Mustaqillik yo‘lida o‘zini qurbon qilgan, jon fido qilgan, shahid bo‘lgan ajdodlarimizning tinimsiz kurashlari, tunlarni tongga, kunlarni tunga ulab qilgan mehnatlari evaziga bugun biz tinch va osuda hayotga erishdik»Shunday Ekan, biz yoshlar «uchinchi renessans potdevorlari», turning ertasi, tayanchi Ekanmiz mamalakatimizning yuksalish davri faqat bidding salihiyatimizga bog‘liqdir. Agar bilimimiz, salohiyat va ma’naviyatimiz yuqori bo‘lsa O‘zbekistonning ham kelajakda dunyo miqyosida o‘rni yuqori bo‘ladi»Ilmga, Ijodga, kashetishga intilish-bu Oliyjanob intilishdir.

**Islom Karimov**

Dunyo bir ko‘zgudir, unda aksing bor  
 Sen yuqori kelsang, u ham purviqor  
 Kulib boqsang agar, jilmayar u ham  
 Rostgo‘y inson uchun dunyo ham halol  
 Yerda o‘rmalagan qurt behudamas  
 Ko‘zlariningda yongan o‘t behudamas  
 Kelajaging porloq olg‘a qadam bos  
 Seni qóllab turgan kuch behudamas!  
 Mehr ko‘rsa garchand tikon ham gullar  
 Oqibat ko‘rmasa, chaman huvillar  
 Ilohiy vazifa ezbilik qilmoq  
 Bu yo‘lda bizlarni Yaratgan qo‘llar  
 Shikoyat o‘rniga, shijoat olsak  
 Malomat o‘rniga, mahorat olsak  
 Temur vorisimiz, o‘g‘il-qizimiz,  
 Millatning dardiga darmon bo‘lolsak  
 Men\* yo‘q elimizda, biz\* degan so‘z bor  
 Bitta tomirdamiz, g‘anim yo‘q, do‘sit bor  
 Iymon ahli Jayhun, Sayhunda degan  
 Bir go‘zal hikmat bor, sahih hadis bor.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi, Respublika iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash Ulug‘bek jamg‘armasi. Yoshlarga donolar o‘giti. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa uyi, 2018.
2. <https://strategy.uz/index.php?news=615&lang=uz>
3. <https://mineconomy.uz/uz/node/1798>
4. <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/ijtimoiy-siyosat>.
5. Ózbekiston taraqqiyot solnomasi.

[https://search.app?link=https%3A%2F%2Fpresident.uz%2Foz%2Flists%2Fview%2F3734&utm\\_campaign=aga&utm\\_source=agsad1%2Csh%2Fx%2Fgs%2Fm2%2F4](https://search.app?link=https%3A%2F%2Fpresident.uz%2Foz%2Flists%2Fview%2F3734&utm_campaign=aga&utm_source=agsad1%2Csh%2Fx%2Fgs%2Fm2%2F4)